



ISSN 2181-1571

FarDU ILMIY KABARLARI

IJTIMOYIY FANLAR



4/2025



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

U.M.Maniyozov	
Inson-jamiat-innoiya dialektikasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.....	206
Sh.Nazarova	
The portrayal of modern women in Bahmanyor's <i>Shahanshah</i> : a comparative analysis of urban and rural femininity in tajik literature	212
F.X.Utayeva	
Buxoroda tashkil etilgan yengil sanoat tarmoqlarining tarixi.....	215
J.Xusanov	
Kitobxonlikni yoshlar ma'naviyatga ta'siri.....	220
O.M.Karimov	
Mehnat erkinligi va inson qadr-qimmati tushunchalarining aksiologik tahlili	224
R.J.Soxibov	
Yoshlarda texnikaviy-estetik madaniyatni yuksaltirishning metodologik aspektlari.....	228
X.S.Qosimov	
Yoshlarda texnoetik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari	231
Sh.O'.Maxmudov	
Yangi O'zbekistonda yoshlarning estetik madaniyatini oshirishda musiqa ta'limi omilining ijtimoiy-falsafiy masalalari	234
M.A.Nuruddinov	
Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning ijtimoiy-falsafiy zaruriyati	237



UO'K: 49(175.146)"25-27":338.46

BUXORODA TASHKIL ETILGAN YENGIL SANOAT TARMOQLARINING TARIXI

ИСТОРИЯ СТАНОВЛЕНИЯ ОТРАСЛЕЙ ЛЁГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В БУХАРЕ

THE HISTORY OF THE DEVELOPMENT OF LIGHT INDUSTRY SECTORS IN BUKHARA

Utayeva Feruza Xolmamatovna 

Buxoro davlat universiteti t.f.f.d.(PhD), dotsent.

Annotatsiya

Maqolada yengil sanoat tarmoqlaridan ipak, zardo'zlik, tikuvchilik va to'qimachilik sanoati tarixiga to'xtalib o'tilgan. Ishlab chiqarishda ustoz-shogird an'anasi mavjud bo'lib, ustozlarning mahoratlari haqida fikrlar bayon etilgan. Fabrikalar barpo etish aholini ish bilan ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lgan. Ushbu maqolada aholining moddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan jihatlar keltirib o'tilgan. Davlat tomonidan joriy etilgan besh yillik rejalar va kunlik topshiriqlar 110-115 foizga bajarilgan. Keltirilgan ma'lumotlar qator adabiyotlar, manbalar, matbuot materiallari va suhbatlardan olingan ma'lumotlar asosida bayon etilgan.

Аннотация

В статье рассматривается история таких отраслей лёгкой промышленности, как производство шёлка, золотошвейного ремесла, швейной и текстильной промышленности. Особое внимание уделяется традиции наставничества в производстве и мастерству наставников. Создание фабрик сыграло важную роль в обеспечении населения рабочими местами. В статье также рассматриваются аспекты, способствующие удовлетворению материальных потребностей населения. Пятилетние планы и ежедневные задания, внедрённые государством, выполнялись на 110–115 процентов. Приведённые данные основаны на ряде литературных источников, архивных материалов, публикаций в прессе и интервью.

Abstract

The article explores the history of various branches of the light industry, including silk production, gold embroidery, sewing, and textile industries. It highlights the tradition of mentorship in production and emphasizes the craftsmanship of masters. The establishment of factories played a significant role in providing employment for the population. The article also discusses aspects that contributed to meeting the material needs of the people. The five-year plans and daily tasks introduced by the state were fulfilled by 110–115 percent. The presented information is based on a range of literary sources, archival materials, press publications, and interviews.

Kalit so'zlar: To'qimachilik sanoati, mutaxassis, oilalar, aholi, ipak, gazlama, fabrika, trikotaj, ishlab chiqarish, ixtisoslik.

Ключевые слова: Текстильная промышленность, специалист, семьи, население, шелк, ткань, фабрика, трикотаж, производство, специализация.

Key words: Textile industry, specialist, families, population, silk, fabric, factory, knitwear, production, specialization.

KIRISH

Buxoroda xalq hunarmandchiligi asta-sekin yirik to'qimachilik sanoatiga aylanib borgan. Buxoroda ipakchilik, to'qimachilik, zardo'zlik, trikotaj sanoatining tarixiy ildizlari uzoq davrga borib taqaladi, buxorolik to'quvchi-tikuvchi ustalar o'zlari tayyorlagan tovarlari bilan mashhur bo'lgan. Buxoroda ishlab chiqilgan matolar tabiiyligi va pishiqligi bilan ajralib turganligi Sharq va G'arb mamlakatlarida nom qozonib kelgan.[7] Ota-bobolarimizning to'qimachilik sohasidagi ish uslublari va tajribalari Buxoroda yengil sanoat tarmoqlari bo'lgan ipakchilik, zardo'zlik, to'qimachilik, trikotaj, tikuvchilik, charm va poyafzal ishlab chiqarish sanoatini rivojiga turtki bo'lgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tanlangan mavzuni o'rganishda asosan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy arxivida mavjud bo'lgan tarixiy hujjatlar va Buxoro viloyat davlat arxivida mavjud bo'lgan tarixiy hujjatlar birlamchi manba sifatida tahlilga tortilgan bo'lib, shuningdek bir qator adabiyotlar tahlilga tortildi. Mavzuni yoritishda matbuot materiallaridan ham foydalanildi. Jumladan, "Buxoro haqiqati", "To'qimachi", "Buxoro haftanomasi", "Yosh Leninchi" "Sovet O'zbekistoni" sahifalarida mavzuga oid yoritilgan

ma'lumotlarni ham tahlil qilishga harakat qilindi. Maqolada tarixiy-xronologik, vorisiylik va izchillik, qiyosiy-tarixiy tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Buxoro iqtisodining rivojlanishi amirlik davrida tadbirkorlik asosida, sovet davrida tadbirkorlik mol-mulkari davlat ixtiyoriga o'tkazilgan holda kolxozlar va sovxozlar tashkil etilib, yo'nalishlar bo'yicha taqsimlanib rivoj topgan. O'zbekistonda yangi yerlarning o'zlashtirilishi, sanoatlashtirilishi, besh yillik rejalarning joriy etilishi, 1925-yilning dekabrda VKP(b)ning XIV s'eyzida "sotsialistik industrilashtirish" Buxoroda ipakchilik, zardo'zlik, trikotaj, tikuvchilik artellarining ishlab chiqarish faoliyatiga alohida e'tibor qaratilishiga to'g'ri keldi. 1930-yillarda Buxoroda 2457 ta mayda va yirik hunarmandchilik korxonalari 20 ta sanoat artellariga birlashtirilgan. "Ozod zamon", "Oktabr 10 yilligi", "F.Xo'jayev", "8-mart", "Qizil sharq", "Namuna", "Quvvat", "Chkalov", "Qizil tikuvchi", "Stalin", "Indposhev"(oyoq kiyim tikkan), "Lenin"va boshqa artellar birin-ketin birlashtirilib fabrikalar faoliyati tashkil topa boshlagan. Sababi artellar xalq talabini aniqrog'i besh yillik uchun quyilgan rejalarni bajara olmagan.

Buxoroda tashkil etilgan sanoat korxonalarining kunlik tarixi matbuot sahifalarida yoritib borilgan. Birgina Buxoro shahrining o'zida 1960-yilda 30 mingga yaqin aholi gazeta va jurnallarga obuna bo'lgan bo'lsa, 1965-yilda obunachilar soni 32 ming 500 kishiga yetgan. Ishchilar, xotin-qizlarning sohada o'sib borayotgan yutuqlari yoritib borilgan. Matbuot tarqatishda jamoatchilikning bevosita faol ishtirok etishi maqsadida shahar bo'yicha 411 matbuot tarqatish jamoat vakillari joylarda ish olib borganlar. Shu jumladan 6 ta matbuot tarqatish jamoat komitetlari ham tashkil etilgan.

Buxoroda 1927-yilda ishga tushgan Pillakashlik fabrikasining tarixiga to'xtalib o'tamiz. Buxoroda yengil sanoatining birinchisi bu "Oktabr X yilligi" pillakashlik fabrikasidir. Buxoro shahar Lenin ko'chasiga(o'sh yillarda shunday atalgan) kiraverishda qad ko'targan. "Oktabr X yilligi" nomidagi pillakashlik fabrikasi yirik korxonalarning biri hisoblangan. Bu fabrika mahsulot ishlab chiqarishda mamlakatda birinchi o'rinda turgan. Unda milliy kadrlar, xususan xotin-qizlardan iborat kadrlar ishlagan. "Oktabr X yilligi" fabrikasining qurilish tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, 1925-yilda Buxoroning bo'sh yotgan yerida Pillakashlik fabrikasining dastlabki poydevori qurilgan. Ikki yil davomida qurilish ishlari olib borilib, 1927-yil bino qurib bitkazilgan va fabrika ishga tushgan. Oktabr inqilobining o'n yilligi munosabati bilan 1927- yil tashkil topgan fabrika "Oktabr X yilligi" nomi bilan atalgan.[1] XX asr 30-yillari birinchi yarmida Buxoro ipak yigirish fabrikasi qayta ta'mirlanib, ishlab chiqarish quvvati 2,4 martaga oshirilgan. Dastlab fabrikada 200 kishi ishlagan. Ishchilarning 80 foizini ayollar tashkil etgan. Fabrikada "Sotsialistik musobaqa" rejasi asosida ish olib borilgan. 1930-yillarda Buxoro shahrida 55 ming kishi istiqomat qiladigan bo'lsa, aholining 1480 kishisi sanoat korxonalarida ishlagan.

Fabrikada ayollar uchun yaratilgan qulayliklarni muvaffaqiyatlarga erishishda katta ta'siri bo'lgan. Korxonada bolalar bog'chasi, kechayu-kunduz ishlaydigan kichik yoshdagi bog'cha (yasli) ham mavjud. Bundan tashqari 2ta bolalar bog'chasi ham ishlab turgan. Fabrika xotin-qizlar uchun gigiyena xonasi, dush, hammom doim xizmatda bo'lgan.

1965-yil Buxoro pillakashlik fabrikasi ishchilari, xizmatchilari va boshqalardan 500 kishi qishloq xo'jaligi tekhnikumida yig'ilishgan. Asosiy maqsad saylov oldi Buxoro xalq sudyaligiga nomzod S.H.Abdug'ulomov bilan uchrashish uchun to'planganlar. Ishonchli vakil fabrika injeneri K.Nodirxonova sudyalikka nomzod S.H Abdug'ulomovning tarjimai holi va mehnat faoliyati haqida so'zlab bergan. Bundan ko'rinib turibdiki, fabrikada jamoatchilik ishlari va davlat tadbirlari ham o'tkazib turilgan va fabrika ishchilari faol ishtirok etganlar. Fabrika davlat siyosatlaridan ham xabardor qilib borilgan.[10] Ishchilar soni kundan-kunga ko'payib borganligini hisobga olib, 1976-yilgi fabrika rejasida 140 ta bolalar uchun mo'ljallab yangi bog'cha qurish ko'zda tutilgan.[11]

Artellar bu aholining birgalikda xo'jalik faoliyati yuritish maqsadlarida tuzgan korxonasi bo'lib, mehnat jarayonlarini birgalikda bajargan. Artellarda yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar [hunarmandlar](#), [kosiblar](#) va boshqalar. O'zbekiston SSRda 1924-yildan keyin ishlab chiqarish vositalarini umumlashtirish asosida sotsialistik xo'jalik yuritish yo'liga o'tkazilgan hunarmandchilik artellari kabi xo'jaliklar tuzilgan. Ularning ishlab chiqarish rejalari davlat xalq xo'jaligi rejasiga kiritilgan. 1980-yillar oxirida yakka tartibda mehnat faoliyati bilan shug'ullanishga doir qonunlar qabul qilingach, bunday artellar o'z ahamiyatini yo'qotgan.

1929-yildan Quvvat artelida bu turdagi mayda korxonalar birlashib trikotaj ishlab chiqarishni vujudga keltirilgan. Dastlab bu yerda paypoq, ip- gazlamalardan to'qilgan ro'mollar, jemperlar sodda uskunali mashinalarda ishlab chiqarila boshlaydi.

1949-yilga kelib Quybishev nomli hamda Tel'man nomli artellar birlashtiriladi va yirik artelga aylantiriladi. Bu artel Tel'man nomi bilan ataladigan bo'ldi. Buxoro viloyatida yalpi sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 1957-yilda 1913-yildagiga nisbatan ming baravar oshib, deyarli 2 milliard so'mga yetgan. Paxta maydoni 1957-yilda 1913-yildagiga qaraganda 550 foizga yetgan, shu davrda paxta yetishtirish 6 baravardan ziyodroq ko'paygan.

1963- yilda esa uning bazasida Buxoro trikotaj fabrikasi tashkil etilib, Ismoil G'ulomovich Fozilov unga rahbar etib tayinlangan. Iqtidorli hamda tashkilotchi rahbar I. Fozilov davrida fabrika kollektivi yuksak mehnat muvofaqqiyatlariga erisha boshlagan. Xitoy Xalq Respublikasi bilan hamkorligidan keyin Moskvaliklar va Leningradliklarning a'lo sifatli mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan boslab bergan vatanparvarlik tashabbusini Buxoro shahar sanoat korxonalarining kollektivlari qizg'in qo'llab-quvvatlaganlar.[6]

1971-1972-yillarda fabrika injener-texnik xodimlari va ishchilarning malakasini oshirish borasida fabrikada tashkil qilingan malaka oshirish kurslarida 84 kishi bitirgan. Bu esa mahsulot sifatini yaxshilashga samarali tasir ko'rsatgan.[8]

Fabrikadagi 1972-yillarda 617 ta ayoldan 583 tasi bevosita ishlab chiqarishda band bo'lib, 32 ta ayol agitator, 4 ta ayol kishi siyosiy axborotchi va 37 ta qiz-juvon siyosiy tashkilotchilik vazifasini sidqidildan bajargan.[4]1971-1972-yillar davomida ilg'or ishchilarga mukofot berish uchun 121 ming so'm pul ajratilgan. Fabrika ishchilarining o'rtacha ish haqi 88 so'mdan 94 so'mga yetgan.[1]

1929-yilda Quvvat artelida mo'jazgina hunarmandchilik korxonasi tashkil etilgan bo'lsa, 1990-yilda zamonaviy rivojlangan ishlab chiqarish fabrikasiga aylangan va ishchilarning ish suratlari yuksalgan. Fabrikaning shuhrati nafaqat ittifoqimizda balki xorijiy mamlakatlarda ham ma'lum bo'lib, gigant kombinat Buxoro ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi uchun o'ziga xos poydevor bo'lib xizmat qilgan.[3]

Buxorodagi "Partiya XVI s'yezdi" tikuvchilik fabrikasida ishlab chiqarishda yangi texnikani joriy etishga katta e'tibor berilgan. 1960-yilning dastlabki ikki oyida 4 ta yangi mashina olingan. Bu mashinalardan ikkitasida ip o'tkazish jarayoni bajarilgan. Ilgari bu jarayon qo'lda bajarilgan. Ikkala mashinaning ishga tushirilishi 8 kishini boshqa sexga ishga ko'chirish imkoniyatini bergan. "Dyrko-541-103" markali yangi mashina fabrikaga keltirilgan. "Dyrko 569-3-80" markali mashinada tugma qadash jarayoni bajarilgan. Bu jarayon ilgari qo'lda bajarilgan. Bu mashinaning ishga tushirilishi mahsulot sifatini yaxshilab, mehnat unumdorligini oshirgan. Maxsus 97-klass mashinaning ishga tushirilishi ish tezligini tezlashtirgan. Ilgarigi mashinalarda 2000 foyda qilinsa, bu mashinada 5000 foiz foyda qilingan. Bu esa mehnat unumdorligini yanada oshirgan. [11]

"Partiya XVI s'yezdi" tikuvchilik fabrikasida har hafta dushanba kuni "Sifat kuni" e'lon qilingan. Hafta davomida mahsulot sifatini tekshirish bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlarning natijalari injener-texnik xodimlar ishtirokida muhokama qilingan va ish yakunlariga qarab, yaxshi natijalarga erishgan sex va bo'limlarga ko'chma Qizil bayroq topshirilgan.[12]1972-yillarda Buxorodagi "Partiya XVI s'yezdi" tikuvchilik fabrikasiga M.Boltayeva direktorlik qilgan.

Fabrika direktorining muxbirlarga bergan javobida paxta yig'im terimi vaqtida fabrikada 55 ta nafaqaga chiqqanlar ishga jalb qilinib, to'qqiz oylik mahsulot realizatsiyasi topshirig'iga qo'shimcha 87 ming so'mlik kiyim-kechak sotilgan. Fabrika Komsomol tashkilotining kotibi Mag'diya To'xtamisheva har kuni 120-130 kilogramm paxta tergan. Uning dugonalari S.Jo'rayeva, M.Karimova, N.Martishovalar ham mana shu ko'rsatgich atrofida paxta terganlar. Madadkorlik burchini ado etayotgan fabrika chevarlari mavsum davomida 230 tonna "oq oltin" terib berishga qaror qilganlar. Bundan ko'rinib turibdiki, jamoat ishlarida ham fabrika ishchilari faol qatnashib, Buxoro oq oltini bo'lgan paxtani terib viloyat iqtisodiyotni o'sishiga hissa qo'shganlar.

Buxoro zardo'zlik arteli 1930-yilgacha yakka tartibda faoliyat yuritgan. 1930-yildan Buxoro Zardo'zlik arteli uyushgan holda faoliyat yurita boshlagan. 1933-yil 17-avgustida hunarmandchilik ishlab chiqarish arteli Nizomi tasdiqlanib, uy sharoitida zardo'zlik bilan shug'ullangan hunarmandlar uyushmaga birlashishgan va 67 zardo'z usta va ishchi kuchidan iborat bu artelda 50 ta yog'och dastgohi hamda 12 ta eskirgan tikuv mashinasi bilan ishni boshlagan. Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarga sifatli mahsulotlarni tayyorlash maqsadida yuqori malakali 10-15 mutaxassislardan iborat doimiy maxsus brigadalar tuzilgan. 1920-yilgacha Buxoro amirining zardo'zlik ustaxonasida

300 ta erkak shug'ullangan bo'lsa, ikkinchi jahon urushidan keyin Buxoro zardo'zlik artelida 80 foiz ayollar ishlar edi. 1929-yillarda zardo'zlik artelida 20 kishi ishlagan bo'lsa, 1972-yil zardo'zlik fabrikasida 675 kishi zardo'zlik kasbini sharaflab ishlagan. Korxona zamonaviy uskunalar bilan ta'min etilgan. Ishchilarga namunali mehnat sharoitlari yaratilgan. Bu hunar haqiqatdan ham zardo'zlarning baxt va farovonlik manbai bo'lib kelgan.[9]

Buxoro ip-gazlama korxonasining qurilish tarixiga to'xtalib o'tamiz. XX asrning 50-70 yillarida Buxoroda barcha imkoniyatlar hisob-kitob qilinib, to'qimachilik sanoati bazasini yaratish yirik korxona qurilishi kerakligi haqida Respublika hukumati tomonidan "Markaz"ga bir necha bor takliflar berilgan. Buxoro viloyati yerlari unumdor, hosildor yerlar bo'lib, shu sababli ittifoq manfaatlariga xizmat qiluvchi paxta dalalari juda katta hududlarni egallagan. Ayniqsa, 1956-yildan yangi yerlarni o'zlashtirish va paxta maydonlarini kengaytirish haqidagi hukumat qarorlaridan so'ng, Buxoroning ko'p joydagi yerlariga ishlov berilib, paxta maydonlariga aylantirilgan. Tabiatning nazari tushgan issiq hudud bo'lgan Buxoroda paxtaning oliy navi ekilgan. Tolasi uzilmaydigan mustahkam va aynan to'qimachilikda sifati yuqori ip-kalava bo'ladigan tola bo'lgan.

O'zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligining 1970-yil 26-mayda 216-sonli buyrug'ining 2-son Nizomiga ko'ra O'zbekiston SSR Ministrlar Kengashining 1970-yil 10-apreldagi 384-raqamli buyrug'i [13] va 1970-yil 20-apreldagi 156-son Yengil sanoat vazirligining buyrug'i asosida Buxoro shahrida qurilishi rejalashtirilgan ip-gazlama kombinatini tashkil etishga ruxsat berilgan. 1971-yilda qurilish ishlariga ruxsat berilgan. Kombinat qurilishi loyihasining nazorati Toshkentdagi 4-son Davlat loyihalashtirish instituti direktori N.Nurmatov va bosh loyihachi O.N.Pogrobenskiylarga topshirilgan. Buxoro ip-gazlama kombinati yuqorida ko'rsatilgan qaror bo'yicha kombinat qurilishi loyihasi asosida ishlar boshlab yuborilgan.[14]

Jamoaga kuchli mutaxassislar va o'z sohasining bilimdonlari jalb qilingan. Nazir Rajabov 1971-1975-yillarda Buxorodagi 163-qurilish tresti boshqaruvchisi bo'lib kombinat qurilishida mehnat qilgan.[15] Uning rahbarligida turdosh korxonalar o'rtasida Respublikada eng yirik Buxoro ip-gazlama kombinati qurib, qisqa muddatda ishga tushirilishiga hissasini qo'shgan. Buxoro ip-gazlama kombinatining ishga tushirilgani viloyatning iqtisodiyoti va xo'jaligida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ishlab chiqarish natijalari asta-sekin ro'yobga chiqa boshlagan. 1974-yilning boshida ya'ni birinchi yarim yillikda 560 tonna kalava va 3177 metr bo'z mato ishlab chiqarilgan bo'lsada, yilning oxiriga kelib ish unumi oshirilgan. Oyliklar o'z vaqtida berib borilgan.

1974-1976-yillarda 500 dan ortiq texnik vositalar, 2696 ta to'quv dastgohlari va 482 ta yigiruv mashinalarida 5936 tonna ip-kalava, 6200 tonnadan ortiq bo'yalgan kalava ishlab chiqarilgan.[16] Bunday natijaga erishishning sababi ishchi va xodimlarning maoshlari o'z vaqtida berib borilgan va qo'shimcha mukofot pullarining berilishi oldiga quyilgan rejani ortig'i bilan bajarilishiga sabab bo'lgan.

O'zbekiston tarixida misli ko'rilmagan Buxoro to'qimachilik sanoatida aholi ehtiyojlariga xizmat qiladigan har xil kiyim-kechaklar ishlab chiqilgan. Ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan buxoroliklar bir jamoa bo'lib, fabrikalarda ish sur'atlarini pasaytirmasdan yakdillik bilan mehnat qilganlar. Hukumat va davlat tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun kunni-kun, tunni-tun demay mehnat qilishgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, ko'p millatli Buxoro xalqi ipakchilik, zardo'zlik, trikotaj, tikuvchilik sanoati korxonasida ishlab ish tajribasini orttirgan. Bu sanoat korxonalari homiyligida ko'pgina bilim yurtlari, maktablar, tibbiyot maskanlari va madaniy maskanlar qurilgan. Kombinat ishchilari ish tajribasini orttirish uchun respublikaning turli viloyatlaridagi to'qimachilik kombinatlariga amaliyotga yuborilgan. Hattoki, yozgi uch oylik ta'tilda talabalar va maktabning yuqori sinf o'quvchilari kombinatda ishlab tajriba orttirib, o'z mehnatlari bilan Buxoro to'qimachilik sanoatini salmog'ini oshirishga hissa qo'shgan. Buxoro hududida yetishtirilgan paxtadan tayyorlangan gazlamalar, ipak matolar sifati yuqoriligi bilan ajralib turganligi sababli, yengil sanoatga ehtiyoj sezilgan. Aholi uchun juda katta imkoniyatlar yaratilishida o'rni ahamiyatli bo'lgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Вохидова Х.// Саноатимиз қалдирғочлари Бухоро ҳақиқати 1966 йил, 28 декабрь (Vakhidova, K. (1966, December 28). *The Pioneers of Our Industry*. Bukhara Truth.)
2. Вохидова Х.// Партия турмуши. Бухоро ҳақиқати.,1972 йил,11июнь (Vakhidova, K. (1972, June 11). *Party Life*. Bukhara Truth.)

ILMIY AXBOROT

3. Ваҳобов Р. (Бухоро трикотаж фабрикасининг директори) // Бухоро трикотаж фабрикасининг ташкил топганига 60 йил тўлди. Бухоро ҳақиқати, 1990 йил, 26 май (№ 101. (17.882) (Vakhobov, R. (Director of the Bukhara Knitwear Factory). (1990, May 26). *60th Anniversary of the Establishment of the Bukhara Knitwear Factory*. Bukhara Truth, No. 101 (17,882).
4. Климов И. // Фабрика қиз-жувонлари. Бухоро ҳақиқати., 1972 йил, 2 июнь (Klimov, I. (1972, June 2). *Factory Women*. Bukhara Truth.)
5. Наимов Н. // Фабрика чеварлари Бухоро ҳақиқати, 1972 йил, 20 октябрь. № 206 (13.056). (Naimov, N. (1972, October 20). *Factory Seamstresses*. Bukhara Truth, No. 206 (13,056).)
6. Совет Делегацияси Пекинда // Бухоро ҳақиқати, 1969 йил 10 февраль (*The Soviet Delegation in Beijing*. (1969, February 10). Bukhara Truth.)
7. Раҳимов Н.К., Раҳимова М.Н. Зандани ва “Занданийчи” тарихидан лавҳалар. – Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2021. – Б. 76. (Rakhimov, N.K., & Rakhimova, M.N. (2021). *Episodes from the History of Zandani and the “Zandanichi”*. Bukhara: Durdona Publishing. p. 76.)
8. Рахматова С. // Аҳдига вафодорлар. Бухоро ҳақиқати, 1972 йил, 11 октябрь. (Rakhmatova, S. (1972, October 11). *Loyal to Their Promise*. Bukhara Truth.)
9. Саъдуллаев А. // Зардўзлар устози Бухоро ҳақиқати, 1972 йил 8 декабрь № 239. (Sa’dullayev, A. (1972, December 8). *The Master of Gold Embroiderers*. Bukhara Truth, No. 239).
10. Фабрикада жамоатчилик ишлари // Бухоро ҳақиқати, 1965 йил 14 декабрь. (*Public Work at the Factory*. (1965, December 14). Bukhara Truth)
11. Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). To'qimachilik sanoatining rivojlanishida xotin-qizlarning o'imi. *Farg'ona davlat universiteti*, (1), 49-49. (Utayeva, F., & Muxamedjonova, M. (2024). *The Role of Women in the Development of the Textile Industry*. Fergana State University, (1), 49-49.)
12. Utayeva Feruza Kholmamatovna Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985) // Central Asian Journal of Social Sciences and History. 2022 №63 (6), 160-164 (Utayeva, F. K. (2022). *Bukhara Yarn and Fabric Factory (1970-1985)*. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 63(6), 160-164.)
13. Бухоро вилоят давлат архиви. 1236-фонд, 1-рўйхат, 7-йиғма жилд, 7-варақ. (Bukhara Regional State Archive. (n.d.). 1236-Fund, 1-Inventory, Volume 7, Page 7.)
14. Исҳоқов Ф Вақтдан ўзиб. – Тошкент: “Фан”, 1976. – Б. 13. (Ishakov, F. (1976). *Time Passed*. Tashkent: Fan. p. 13.)
15. Ражабов Қ., Бобомуродов К. Шофиркон тумани тарихи. – Тошкент: “Tafakkur”, 2015. – Б. 70. (Rajabov, Q., & Bobomurodov, K. (2015). *History of Shofirkon District*. Tashkent: Tafakkur. p. 70.)
16. Исмаилов А. Каждый день – ударный. // Текстильщик Бухары, 9 июня 1979 года. (Ismailov, A. (1979, June 9). *Every Day is a Day of Hard Work*. Textile Worker of Bukhara)